

“TASDIQLAYMAN”

Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori,
Komissiya raisi

_____ A. Ortikov

2024-yil 29-mart

**Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi
bo'yicha nomzodlarni tanlab olish komissiyasi yig'ilishining**

01/03-09-3/5-sonli BAYONI

2024-yil 29-mart

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ortikov

Qatnashdilar: N. Xusanov — *Davlat aktiv agentligi direktori - Komissiya raisi*

J. Nasirov — *Direktorning birinchi o'rinbosari - Komissiya raisi o'rinbosari*

S. Qurbonaliyev — *Direktorning maslahatchisi - Komissiya a'zosi*

Sh. Oxunov — *Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash departamenti boshlig'i - Komissiya a'zosi*

U. Gazyev — *Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish departamenti boshlig'i - Komissiya a'zosi*

Sh. Sofarov — *Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da'vo ishlarini yuritish bo'yicha yuridik boshqarma boshlig'i - Komissiya a'zosi*

Davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv va nazorat organlarini shakllantirish bo'limi boshlig'i - Komissiya kotibi

KUN TARTIBI:

Davlat aktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun e'lon qilingan tanlov natijalari va nomzodlarni tanlash to'g'risida

(Ortikov, Xusanov, Nasirov, Oxunov, Gaziyeu, Qurbonaliyev, Sofarov, Ortikov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Komissiya kotibi Sh.Sofarovning axboroti eshitildi:

Komissiyaning 2023-yil 30-noyabrdagi 01/03-09-3/4-son qarori bilan Davlat ishtirokidagi 16 ta korxonalarning davlat ulushi bo'yicha 44 nafar kuzatuv kengashi a'zolik o'rinlariga nomzodlarni ko'rsatish uchun veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlov muddati uzaytirilgan.

Bugungi kunda, tanlov muddati uzaytirilgan 16 ta korxonalardan:

- 3 tasining 14 nafar a'zolik o'rinlariga 18 nafar talabgorlardan arizalar kelib tushganligi sababli tanlash imkoniyati mavjud emas;

- 13 tasining 30 nafar a'zolik o'rinlariga 104 nafar talabgorlardan arizalar kelib tushganligi sababli tanlash imkoniyati mavjud.

O'z navbatida, 13 ta korxonaning 30 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirgan 104 nafar nomzodlarning kasbiy va malakaviy faoliyati tanlov komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilganda:

- 7 ta korxonaning 18 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirgan 65 nafar nomzodlar ichidan tanlab olish uchun bilim va ko'nikmalarga ega talabgorlar mavjudligi;

- 3 ta korxona ("Yoshlar teleradiokanali" AJ, "Ohangaronshifer" AJ va "Sharq" AJ)ning 7 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirgan 20 nafar nomzodlar korxonalar faoliyat yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi;

- 3 ta korxona (5 nafar a'zolik o'rinlariga 19 nafar talabgorlar ariza topshirgan), ya'ni, "Paxtasanoat Ilmiy Markazi" AJ bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrdagi 391-son qaroriga asosan qayta tashkil etish orqali Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirilishi belgilanganligi, Transport vazirligi tomonidan "O'zaeronavigatsiya markazi" DUK bo'yicha kuzatuv kengashi tarkibiga tanlov e'lon qilingan korxonalar ro'yxatidan chiqarish so'ralganligi hamda "YANGIARIQ PLAST" MChJ ustav kapitalidagi davlat ulushi sotilishi belgilangan bo'lib, jamiyat faoliyati tahlil qilinganda kuzatuv kengashi joriy etishga zarurat yo'qligi ma'lum bo'ldi.

Shunga ko'ra, tanlov komissiyasi tomonidan 7 ta korxonaning kuzatuv kengashi a'zolik o'rinlariga 65 nafar talabgorlardan malakali nomzodlarni tanlab olish, 3 ta korxonaning 7 nafar a'zolik o'rinlariga tanlov muddatini uzaytirish va 3 ta korxona ("Paxtasanoat Ilmiy Markazi" AJ qayta tashkil etilishi belgilanganligi, "YANGIARIQ PLAST" MChJga kuzatuv kengashi zarurati yo'qligi va "O'zaeronavigatsiya markazi" DUK Transport vazirligining 2024-yil 27-fevraldagi 4/1547-son murojaati sababli) tanlov e'lon qilingan korxonalar ro'yxatidan chiqarish lozim deb topildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, **Komissiya QAROR QILDI:**

1. Quyidagilar:

- "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunning 44-moddasiga ko'ra, davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'ziligiga davlat ulushi bo'yicha nomzod tegishincha Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy

ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan tanlov komissiyasi tomonidan tanlanishi belgilanganligi;

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 28-bandida, kuzatuv kengashi tarkibida bo'sh a'zolik o'rinlarining yuzaga kelishi natijasida kuzatuv kengashi majlislarida kvorum yig'ilmasa, tegishli nomzod saralab olingunga qadar kuzatuv kengashi tarkibiga vakolatli davlat organi tomonidan Davaktiv agentligi bilan kelishgan holda nomzod kiritilishiga, istisno tariqasida yo'l qo'yilishi belgilanganligi;

- Nizom talablariga ko'ra, malaka talablariga mos kelmaydigan talabgorlar kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzod bo'la olmasligi ko'rsatib o'tilganligi;

- Davaktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni ko'rsatish uchun veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlov e'lon qilinganligi hamda OAV orqali, jumladan Davaktiv agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritib borilganligi;

- mazkur tanlovlarda ishtirok etish uchun 16 ta korxonalarning davlat ulushi bo'yicha 44 nafar a'zolik o'rinlariga jami 122 nafar talabgorlardan ariza kelib tushganligi hamda nomzod sifatida qabul qilinganligi;

- malaka talablariga mos kelgan 122 nafar nomzodlardan:

- 104 nafar nomzodlar 1-ilovaga muvofiq 13 ta korxonalarning 30 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirganligi, har bir a'zolik o'rniga kamida 2 nafar nomzod ishtirok etayotganligi,

Bunda:

- 3 ta korxonaning 7 nafar a'zolik o'rinlariga ushbu korxonalarning faoliyat yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega nomzodlardan ariza kelib tushmaganligi;

- 3 ta korxonaning 5 nafar a'zolik o'rinlariga ya'ni, "Paxtasanoat Ilmiy Markazi" AJ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrdagi 391-son qaroriga asosan qayta tashkil etish belgilanganligi, "YANGIARIQ PLAST" MChJ faoliyatiga kuzatuv kengashi zarurati yo'qligi va Transport vazirligi "O'zaeronavigatsiya markazi" DUKni kuzatuv kengashi tarkibiga tanlov e'lon qilingan korxonalar ro'yxatidan chiqarishni so'raganligi sababli tanlab olish imkoniyati mavjud emasligi;

- 18 nafar nomzodlar 3 ta korxonalarning 14 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirganligi, biroq har bir a'zolik o'rniga kamida 2 nafar nomzod ishtirok etmayotganligi,

- 9 nafar nomzodlar 2-ilovaga muvofiq muqaddam davlat ulushi bo'yicha korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga taklif etilmaganligi yoki suhbat o'tkazilmaganligini inobatga olib, suhbat jarayoniga jalb etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat ishtirokidagi 7 ta korxonalarning 18 nafar a'zolik o'rinlariga nomzodlarni ko'rsatish uchun baholash ballari, suhbat natijalari va kuzatuv kengashidagi faoliyatidagi tajribasiga ko'ra saralab olingan 17 nafar nomzodlar g'olib deb topilsin. Bunda, korxonalarning faoliyat yo'nalishi va xususiyatlaridan kelib chiqib,

malakali nomzodlar saralab olingunga qadar 1 nafar nomzodlar davlat ulushi bo'yicha tavsiya etilsin va jami 18 nafar nomzodlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlativ agentligi ishtirokidagi 7 ta korxonalarning 4-ilovaga muvofiq 22 nafar a'zolik o'rinlariga tanlov muddati 30 kunga uzaytirilsin.

4. Davlat ishtirokidagi 15 ta korxonalarning 31 nafar a'zolik o'rinlariga 4-ilovaga muvofiq yangi tanlov e'lon qilinsin.

5. Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash departamenti (Qurbonaliyev):

- uch kun muddatda Davlativ agentligi ishtirokidagi 7 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga g'olib deb topilgan nomzodlarni kiritish bo'yicha ushbu korxonalarga ko'rsatma xatlari yuborish hamda aksiyador (ta'sischi) larning umumiy yig'ilishida mazkur nomzodlarni kuzatuv kengashi tarkibiga kiritish;

- o'ttiz kun davomida Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (Abdujambulov) bilan birgalikda 7 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi 22 nafar a'zolik o'rinlariga tanlov muddati uzaytirilganligi, 15 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi 31 nafar a'zolik o'rinlariga qo'shimcha tanlov e'lon qilinganligi to'g'risida e'lon berish, shu jumladan Davlativ agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritish choralarini ko'rsin.

6. Tanlovlarda nomzodlardan arizalarni qabul qilish 30 kun davomida amalga oshirilsin hamda arizalarni qabul qilishning boshlanish sanasi e'lon qilingan tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus veb-portalga joylashtirilgan sana etib belgilansin.

7. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash komissiya kotibi Sh. Sofarov zimmasiga yuklansin.

Komissiya a'zolari:

N. Xusanov

J. Nasirov

S. Qurbonaliyev

Sh. Oxunov

U. Gaziyeu

Sh. Sofarov

